

INTERNET IMKONIYATLARI VA INTERNETDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ ASOSIY TUSHINCHALAR

Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi,

Tel: +998 91 587-00-96

Elektron pochta (e-mail):

ilhomabdurazzoqovterdp@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Internet imkoniyatlari va internetda uchraydigan xatarlar, internetning foydali va yoshlar ongiga ta'siri haqida fikr yuritdik.

Kalit so'zlar: International Network, Internet tarmog'ining tuzilishi, Ijtimoiy media, tarmoq.

Kirish. Internet tushunchasi. Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon, global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" – xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" (Interconnec netwok) «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan tashkil topadi. Internet tushunchasi. Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" – xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" (Interconnec netwok) «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan tashkil topadi.

Asosiy qism.

Internet tarmog'i, unga ulangan barcha kompyuterlarning o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. Internet tarmog'ining har bir mijoji o'zining shaxsiy kompyuteri orqali boshqa shahar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. Masalan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi katalogini ko'rib chiqish, Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyining oxirgi ko'rgazmasiga qo'yilgan suratlar bilan tanishish, xalqaro anjumanlarda ishtiroy etish, bank muomalalarini amalga oshirishi va hatto boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi Internet tarmog'i mijozlari bilan shaxmat o'ynash mumkin.

Internet tarmog'ining tuzilishi. Internet o'z - o'zini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim bo'lib, asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan:

- texnik;
- dasturiy;

➤ axborot.

Internet tarmog‘ining texnik ta’minoti har xil turdagি kompyuterlar, aloqa kanallari (telefon, sun’iy yo‘ldosh, shisha tolali va boshqa turdagи tarmoq kanallari) hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.

Internet tarmog‘ining dasturiy ta’minoti (tarkibiy qismi) tarmoqka ulangan xilmal-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida (yagona tilda) ishslashni ta’minlovchi dasturlar. Internet tarmog‘ining axborot ta’minoti Internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo ko‘rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan. Internetning ikkita asosiy vazifasi bo‘lib, buning birinchisi axborot makoni bo‘lsa, ikkinchisi esa kommunikatsion vositasidir.

Internetga bog‘lanish-Internet tarmog‘iga ulanish ajratilgan aloqa kanali (optik tola, sun’iy yo‘ldosh aloqasi, radiokanal, ajratilgan kommutatsiyalanmaydigan telefon liniyasi) bo‘yicha doimiy ulanish, shuningdek kommutatsiyalanadigan, ya’ni uzib-ulanadigan ulanish (Dial-up access, Dial-up) ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy media - Ijtimoiy media foydalanuvchilarning bevosa muloqotini ta’minlaydi. Foydalanuvchi lar o‘z mediakontentini ochiq foydalanish uchun yuklashi mumkin.

Internetning xususiyati va an’anaviy OAVdan farq laridan biri foydalanuvchilar imkoniyatini kengaytirishidir. Zarur dasturlar yordamida keng auditoriya uchun har bir foydalanuvchi o‘z kontentini yaratishi mumkin. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, Internetda uncha keng bo‘lmagan foydalanuvchilar guruhi kontentning asosiy qismini yaratadi, masalan, video, bloglar yoki matnlar. Ijtimoiy mediada ishtirok etishning eng keng tarqalgan usuli — mavjud kontentni tahrir qilish, baholash va izohlashdir. Ishtirok etishning boshqa usullari qatoriga turli guruhlarga a’zo bo‘lish, “menga yoqadi” belgisini qo‘yish orqali munosabat bildirish yoki onlayn imzolash aksiyalari kabilar kiradi.

Ijtimoiy media shakllari:

1. Foydalanuvchilar profillarini o‘z ichiga oluvchi hamjamiyatlar portalı, tarmoqdagi o‘zaro harakat va izohlar.
2. Munozara va izohlarga asoslangan bloglar.
3. Foydalanuvchilar tomonidan tahrir qilinadigan viki-veb sahifalari. Unda taqdim etilgan axborot foydalanuvchilar hamjamiyatiga nafaqat mavjud axbo-rotni izohlash, balki yangi bilimlarni yaratishda ishtirok etish imkonini beradi. Bunda hamjamiyatning har bir a’zosi unga axborot kiritishi yoki uni olib tashlashi mumkin.
4. Foydalanuvchi lar bir biridan qanday masofada bo‘lishidan qat’iy nazar yuzmayuz muloqotga kirishish imkonini beruvchi tezkor axborot almashinushi.

Ijtimoiy platformada profilni yaratishda foydalanuvchi lar hamjamiyatga o‘zini tanishtirish uchun shaxsiy axborotni taqdim etishi lozim. Chat yoki forum-larda foydalanuvchilar ba’zan shaxsiy axborotni ham, ya’ni manzil yoki telefon raqamlarini

taqdim etishadi. Bolalar va o'smir lar shaxsiy ma'lumotni barchaning e'tiboriga taqdim etish oqibatlarini ko'ra olmaydi. Ko'plab ijtimoiy media xizmatlaridagi muloqot ma'lumotlari formasi shaxsga yuboriluvchi reklamaga asoslangan. Foydalanuvchi o'zi haqida qanchalik ko'p ma'lumot bersa, reklama shunchalik ixtisoslashtirilgan bo'ladi.

Internetdagи axloqsiz xatti-harakat (bullying) asosan undagi foydalanuvchilarning anonimligi natijasida yuzaga keladi. Bugungi kunda ijtimoiy mediada bullying ommaviy tus olgan. Demak, bullying obyektiga aylangan inson uchun uning oqibatlari o'ta jiddiydir. Tanaffus paytida sinfdosh lar tomonidan aytilgan haqoratli so'zni bir nechta odam eshitishi mumkin, chunki qurban va uni haqorat qilgan shaxs bir mакtabda o'qib, bir birini taniydi. Ammo tuhmat mazmunidagi videodan Internetda juda ko'p saytlarga, uyali aloqa telefon-lariga, kompyuter lardagi arxivlarga nusxa ko'chirish mumkin. Bunday material tarmoqda uzoq vaqt saqlanadi.

Internetning anonimligi hisobiga muayyan guruh va alohida shaxslarga nisbatan nafrat uyg'otish va uning targ'iboti keng tarqalishi mumkin. Bundan tashqari, virtual dunyoda inson larning xatti-harakati u larning real hayotdagи faoliyatidan tubdan farq qiladi. Chunki ular o'z raqibining yuzini ko'rmaydi va o'z harakatining oqibati haqida o'ylamaydi. Shuning uchun ham Internetda inson huquqlarining kamsitilishi va tuhmat qurbaniga aylanish xavfi yuqoriq. Bundan tashqari axloqsiz kontent bolalar va yoshlar uchun xavfli hisoblanadi. Chunki berilgan soxta ma'lumotlar ularning qarashlariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Aksariyat hollarda yoshlar o'z yoshiga mos bo'limgan materiallar, masalan, pornografiya yoki reklamani Internetdan olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Pornografiya mazmunidagi material bilan tanishish yoshlarning ruhiyatiga ham, jinsiy rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Internetdan foydalanish bilan bog'liq chaqiriq va xatarlarni tushunish

Onlayn-kontent bilan bog'liq muammolar va xatarlar

«Youth Protection Roundtable Tool Kit — Stiftung Digitale Chancen 2009» bo'yicha moslashtirilgan shaklda iqtibos qilinmoqda.

Yoshga to'g'ri kelmaydigan kontent: Internet barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun xilma-xil kontent taklif etadi va shu orqali ham ommaviy foydalanuvchi-larning hamda alohida guruhlarning turli qiziqishlarini qondiradi. Bolalar va o'smirlar kontentning hammasidan ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaslik-lari kerak. Shu munosabat bilan muayyan kontent qanday yosh guruhibamos kelishini aniq belgilash lozim. Qonun bilan taqiqlanmagan, ammo yosh foydalanuvchi larga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kontentga alohida e'tibor qaratish kerak. Yoshga to'g'ri kelmaydigan kontent, xususan kattalar uchun mo'ljallangan pornografiya bolalarga zarar yetkazishi mumkin, ayniqsa undan foydalanish imkoniyati tasodifan yuzaga kelgan bo'lsa. Yoshiha to'g'ri kelmaydigan kontentga duch kelish xatari foydalanuvchining o'z xatti-harakatlari bilan bog'liq. U bu kontentni atayin qidirishi yoki bexosdan unga to'qnashishi mumkin. Yoshi nuqtai nazaridan cheklangan kontent tijorat asosida taqdim etilishi mumkin, ammo foydala-nuvchilar tomonidan ham yaratilishi mumkin.

Yoshi nuqtai nazaridan cheklangan kontentdan foydalanish huquqi muayyan foydalanuvchi larga beriladi, umumiy kontentdan esa, odatda, hamma foydalanuvchilar foydalanadi va shu sababdan u alohida e'tibor talab etadi. Bugungi kunda ko'p bolalar va o'smirlarning multimedia imkoniyatlariga ega telefonlari bor va bitta tugmani bosib Internetga kirishlari mumkin. Bunda, ular yoshlariga to'g'ri kelmaydigan kontentga duch kelganlarida, yonida kattalar bo'lmasligi mumkinligini unutmasligi kerak.

Kontent tekshirilmasligi: Internetdan olingen kontent mustaqil ekspertlar tomonidan tekshirilmaydi, shunday ekan o'smirlar kontentga tanqidiy yondashishni o'rganishlari va u yerda o'qiganlarining hammasiga ko'r-ko'rona ishonmasliklari juda muhim. Veb 2.0 muhitiga xos bo'lgan foydalanuvchilik kontenti ko'pincha to'liq emas, noxolis va noaniq bo'lishi mumkin. Yoshlaronlayn o'qisabo'ladigan narsalarning hammasiga ham ishonib bo'lmasiginibilishikerak. Zarar yetkazishga undash: Tarmoqda foydalanuvchi larni o'ziga-o'zi zarar yetkazishga undaydigan ko'plab saytlar bor (bu o'z joniga suiqasd qilishni, anoreksiya yoki sektachilikni targ'ib qiladigan sayt lar). Veb 2.0 va kontent joylashtirish bo'yicha yangi texnologiya lar bor ekan, foydalanuvchi o'ziga o'zi zarar yetkazishga undaydigan kontentning ta'siriga tushib qolishi mumkin. Xususan, bolalar va o'smirlar, ko'pincha, bu kabi sayt larning yo'riqnomalarida ko'rsatilgan xavfni real baholay olmaydilar.

Inson huquq larini poymol etish: Internet anonimlikka asoslangan, shuning uchun ayrim aholi guruhlari va alohida shaxslarga qarshi yo'naltirilgan targ'ibotni osongina tarqatish mumkin. Boz ustiga, odamlar o'zraqiblari yoki qurbanlari bilanto'qnashganda, o'zxatti-harakatlari uchun javob bermaslik-larini bilganlarida onlayn tartibda o'zlarini o'zgacha tutishlari mumkinligini e'tibordan qochirmaslik kerak. Shunday qilib, inson huquq lari buzilishi va diffamatsiya qurboni bo'lish xatari real hayotga qaraganda virtual muhitda ko'proq.

Reklama va marketing ko'rinishidagi bolalar uchun nomaqbul ma'lumotlar: bolalar uchun mo'ljallanmagan reklama ta'sirida bolalar ular uchun mo'ljallanmagan tovarlar yoki xizmatlarini (masalan, plastik jarrohlik) sotib olishlari mumkin. Foydalanuvchilar o'z shaxsiy ma'lumotlarini (ismi, yoshi, jinsi) qancha ko'p oshkor qilsalar, reklamada ishtirok etish yoki lotereya o'ynashga taklifnoma olishlari etimoli shunchalik ko'payadi. Bolalar biron blankada yoki Internetdagи parchalarda o'z ismini yozish istagi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin-ligini ko'p hollarda oxirigacha tushunib yetmaydi lar. Shunday ekan juda katta xavfga qoladilar. Bolalar va o'smirlar orasida mobil telefonlar qanchalik ommalashgani inobatga olgan xolda, reklamani ko'rishning ushbu qo'shimcha kanaliga alohida e'tibor berish kerak.

Shaxsiy hayot daxlsizligi: Intenetda paydo bo'lgan kontent cheklanmagan vaqt davomida butun dunyo bo'ylab aylanib yurishi mumkin. Foydalanuvchilar, ayniqsa bolalar va o'smirlar, matn va rasmlarning qisqa va uzoq muddatli oqibatlarini tasavvur qila olmaydilar, vaholanki keyinchalik ularning o'zi bu kontent ochiq makonda

turishini istamasliklari mumkin. Server yoki platformada saqlab qolning ma'lumotlardan har kim foydalanishi mumkin, ma'lumot egalari esa ularning shaxsiy ma'lumot lari qanchalik himoyalananligini tasavvur ham qilolmaydilar. Internetda ishlar ekanlar, odamlar ushbu muhitning o'ziga xos jihatlarini tushunishlari kerak.

Mualliflik huquqlarining buzilishi: mualliflik huquq larining buzilishi — bu ko'pgina foydalanuvchilarning o'z xatti-harakatlari bilan bog'liq xatar. Mualliflik huquqlari atayin buzildimi yoki atayin emasmi, bundan qat'iy nazar, foydalanuvchi buni buzish deb hisoblashi va huquqni buzgan shaxs jazolanishini talab qilishi mumkin.

Pul o'g'irlash/firibgarlik: bu fuqarolarning bankdagi hisob raqamlaridan pul yechib olish maqsadida ularning shaxsiy bank hisob raqamlari, xususan shaxsiy identifikatsiya raqamlari (PIN) va bitimlarning individual raqamlari (TAN) haqida ma'lumotlarni olish jarayoniga aytildi. Yoshlar yolg'on veb-saytlarni haqiqiy veb-saytlardan ajratishni bilmaydilar va o'zlarining bank ma'lumotlarini oshkor qiladilar.

Savdodagi firibgarliklar: sotuvchilar xuddi tovar yoki xizmatni sotayotgandek bo'lib, aslida esa to'lov amalga oshirilganidan so'ng bu tovar yoki xizmatlar aytilgan tavsiflarga ega bo'lmasligi yoki xaridorga umuman yetkazib berilmasligi savdodagi firibgarlik deb ataladi. Bu firibgarlik ham shaxsiy ma'lumot lar o'g'irlanishi yoki fishing bilan bog'liq. Savdodagi yana bir firibgarlik — raqamli xizmat-larni (masalan, ringtonlarni) yolg'on yoki noto'g'ri narxda sotish bo'lib, ko'pincha, foydalanuvchi istamagan xizmatlarga doimiy yozilishiga bog'langan bo'ladi. Ko'p hollarda foydalanuvchilar (o'smirlar va bolalar ayniqsa) bunday shartnomalarni onlayn tuzish bilan bog'liq xavfni to'liq anglamaydilar.

Profil yaratish: inson turli platformalar uchun qancha ko'p profil yaratsa, ushbu platformalardan birida joylashtirilgan shaxsiy ma'lumotlar boshqalarga berilishi xavfi shuncha ortadi (masalan, aholi ichida so'rov o'tkazish yoki lotereyada ishtiroy etish uchun). Demak, profil lar bevosita biror odam bilan aloqa bog'lash va unga kerakmas kontent yoki reklamani yuborish, yoxud biron xizmatni taklif etish uchun yaratiladi. Foydalanuvchi har qanday veb-saytda, shu jumladan shaxsiy ma'lumot lar ochiq e'lon qilinadigan veb-saytda profil yaratishi mumkin. Foydalanuvchilarning profili bilan (yoki ularning shaxsiy profillari) veb-saytlarning ma'lumotlar bazasida tanishish mumkin yoki platformaning provayderi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga sotib yuborishi mumkin. Bunday holatlar ayniqsa xavflidir.

Xulosa. Internet barcha yoshdagagi foydalanuvchilar uchun xilma-xil kontent taklif etadi va shu orqali ham ommaviy foydalanuvchi-larning hamda alohida guruhlarning turli qiziqishlarini qondiradi. Bolalar va o'smirlar kontentning hammasidan ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaslik-lari kerak. Shu munosabat bilan muayyan kontent qanday yosh guruhibamos kelishini aniq belgilash lozim. Qonun bilan taqiqlanmagan, ammo yosh foydalanuvchi larga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kontentga alohida e'tibor qaratish kerak. Yoshga to'g'ri kelmaydigan kontent, xususan kattalar uchun mo'ljallangan pornografiya bolalarga zarar yetkazishi mumkin, ayniqsa

undan foydalanish imkoniyati tasodifan yuzaga kelgan bo'lsa. Yoshiga to'g'ri kelmaydigan kontentga duch kelish xatari foydalanuvchining o'z xatti-harakatlari bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Acta NUUz*, 1(1.3. 1), 61-65.
2. Rustamovich, A. I. (2024). INTERACTIVE METHODS OF COMPUTER SCIENCE USED IN FOREIGN COUNTRIES, NEW METHODS AND TOOLS OF TEACHING WERE DISCUSSED. *Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 2(5), 175-180.
3. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O 'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
4. Shuxratovich, E. U., & Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA "BULUTLI TEXNOLOGIYALAR" ORQALI O'QITISH (XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA). *World scientific research journal*, 25(1), 79-85.
5. Rustamovich, A. I. (2022). FRANSIYA VA AVSTRALIYA DAVLATLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING RIVOJLANISHI, O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. *World scientific research journal*, 8(1), 123-126.
6. Rustamovich, A. I. (2022). RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANINING O 'RNI. *PEDAGOGS Jurnali*, 20(1), 58-61.
7. Abdurazzoqov, I. R. (2023). XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA INFORMATIKA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TEXNOLOGIYALAR. *SCHOLAR*, 1(28), 323-328.
8. Yuldashev, U., Abdurazzokov, I., & Tursoatov, B. (2022). EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES. *Scientific Collection «InterConf»*, (107), 104-108.
9. Okboyevich, S. X., & Rustamovich, A. I. (2024). ZAMONAVIY KOMPYUTER GRAFIKASI VA GRAFIK MUHARIRLARI HAQIDA TUSHUNCHA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 45(10), 29-32.
10. Rustamovich, A. I., Bahrom Yo'ldosh o'g, B., & Ibodullo o'g, N. J. R. (2024). JAMIYATNI AXBOROTLASHTIRISHNI TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 45(7), 42-48.
11. Ro'ziboy, T. R., ABILOV, S., & MAMA YUSUFOV, M. (2024). BO 'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O 'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *News of UzMU journal*, 1(1.4), 204-207.